

Panjiyeva Shahnoza

TMCI insitituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

Musurmonkuova Asaloy

TMCI insitituti, “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi.

KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHGA QARATILGAN METODIK TAVSIYALAR

Annotatsiya:Maqolada kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqini o‘stirishga yordam beruvchi omillar, texnologiyalar haqidagi umumiy tushunchalar va metodik tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar:Kommunikativ yondoshuv, tarbiyachi tili, boshlang‘ich nutq, nutqiy tarbiya, emotsional muloqot, talaffuz, imlo, leksikografiya.

Аннотация:В статье приведены общие понятия и методические рекомендации о факторах и технологиях, способствующих развитию речи младших школьников.

Ключевые слова:Коммуникативный подход, язык учителя, элементарная речь, речевое воспитание, эмоциональное общение, произношение, орфография, лексикография.

Annotation:The article provides general concepts and methodological recommendations about factors and technologies that contribute to the development of speech in primary schoolchildren.

Keywords:Communicative approach, teacher's language, elementary speech, speech education, emotional communication, pronunciation, spelling, lexicography.

INTRODUCTION:Kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini o‘stirish masalasiga haqida so‘z borarkan, avvalo, shuni ta‘kidlashimiz joizki, ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachisining bolalarga ularning o‘z ona tilini o‘rgata olish qobiliyati uning kasb tayyorgarligi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Bolalarga ona tili o‘rgatish uchun bo‘ljak tarbiyachi nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chuqur o‘rganishi va ushbu sohaning fanga ma‘lum bo‘lgan metodlarini o‘zlashtirishi, ona tili qonuniyatlarini tushunib yetishi lozim.

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni – bolalarda og‘zaki nutqni, uning atrofida bilan nutqiy muloqoti ko‘nikmalarini shakllantirish. Nutqni o‘stirishda O‘zbekiston Respublikasida va Xorijda yaratilgan va hozirda mavjud bo‘lgan barcha ijobiy natijalar umumlashtirilgan.

E.I. Tixeyevaning ko‘rsatishicha: “Ona tili, uni hech qanday to‘siqsiz va har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning asosini tashkil etmog‘i lozim”. [1] Nutqni o‘z vaqtida egallash bolada to‘laqonli psixika paydo bo‘lishi hamda uni keyinchalik to‘g‘ri rivojlanishining eng muhim va birinchi shartidir. O‘z vaqtida degani bu bola tug‘ilgandan keyingi daslabki kunlardan boshlab. ” Nutq uchun rivojlanishining bunday “hal qiluvchi” davri bolani hayotini daslabki uch yili hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish metodikasi boshqa har qanday pedagogika fani sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kirgan. Bundan tashqari umumiy shakllari, tomonlari va o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradigan didaktika qonunlari va toifalariga tayanadi.

MATERIALS.

Bugungi kunda pedagogik nutqdan tashqari zamonaviy pedagogik amaliyot o'z aksini innovatsion metodlardan foydalanish zamon talabi darajasida globallashtirgan holda topgan. Ta'lim jarayonida balki kichik bolalar nutq faoliyatida yangi metodlardan foydalanish, yangi metodlarni qo'llash hozirgi kundagi bolalarni, o'quvchilarni, katta yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limning obyektlariga aylantirgan. Innovatsion faoliyat davlat siyosatida ham ko'tarilib ko'rib chiqilgan, hukumatimizning 2020-yil 7-aprelda qabul qilgan "Innovatsion faoliyat to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining qonuni, 2022-2026 yillarda O'zbekiston respublikasining innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Prezident Farmoni qabul qilgan.


RESULTS AND DISCUSSION.

Muloqot va boshqaruv – lingvistikaning boshqa bir ulkan sohasi hisoblanadi. Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofda odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojlari tarkibini boyitish zarur. Kichik bolalarda kattalar bilan muloqot qilishda uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir – birini tushinishi va vosita sifatida foydalanishini talab qilishdan iborat. Kichik yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni, atrofda odamlar bilan nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. Kichik bolalar nutqni, balkida barcha turdagi nutqni rivojlantirishda metodikaga quydagilarni misol qilsak bo'ladi, (bolalar nutqiy qobiliyatini chiqarish, tarbiyalash, bolalar nutqini shakllantirish, ularga qaysi metodlar va uslublar qo'llash kerakligi, yana ularni har qanday sharoitda ham qo'llash).Nutqni ikki turlari o'rtasidagi farq matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilaydi.

1. Taffakur, xotira ham gapirishni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Bularni rivojlanganligi gapirishini o'rgatishga ta'sir qiladi.
2. Nutq namunalarini, jumllarini qo'llay olish.
3. Gapirish uchun zarur bo'lgan leksik, grammatik materiallar.
4. Psixologik tafakkur, xotirani hisobga olish.

Til va taffakur bilan monand bog'langan holda ongni shakllantiruvchi vosita sanaladi. Nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarda, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham aniq namoyon etadi. Nutqni yaxshilash har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashishdir. Nutq haqida gap ketganda, uni nima ekanligiga etibor qaratish lozim. Nutq madaniyati til ilmining nisbatan kichik sohasi hisoblanadi. Nutq rivojlanishida adabiyotlar, san'at, radio, televideniya va davriy matbuotning o'rni kengdir. Ayniqsa, adabiy tilni rivojlantirish, me'yorlashtirish va nutq madaniyatini nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega.

Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak – atrofda obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o'simliklar olami, suv osti dunyosi) to'g'risidagi tasavvurlarni aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab e'tiladi. Nutqni rivojlantirishning samaradorligini oshirish natijasida faqat tevarak- atrof emas, bolalar uni shunchaki kuzatishlari kerak emas, balki predmetlarini, elementlarning ko'rinishi, jarayon hodisalarini kuzatishi, idrok etishlari kerak.



Mazkur usul bilan maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog‘lanishi nutqidagi kamchiliklar narsa predmetlarning nomlarini so‘zma- so‘z va eslash orqali to‘ldiradi. Kichik yoshdagi bolalarda ham shunday holat bo‘lsa nutqning o‘shida kamchiliklar yuz bermaydi.

- Nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar (tarbiyachi va ota –onalarning ma‘lum maqsadiga qaratilgan nutqi, bolalarga o‘qib yoki aytib beriladigan ertaklar, qo‘shiqlar, hikoyalar).
- Ta‘limning didaktik materiallarini o‘zlashtirish uchun foydalanilgan metod usullar.
- Ta‘limni tashkil etish ya‘ni tevarak-atrof obyektlarni saralash, shunga bog‘liq nutq o‘stirishni rejalashtirish.

Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab va xohish bo‘lishi kerak. Har qanday nutqning mazmuni, materillari bo‘lishi lozim. Bu materiallar qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi.

Bizga ma‘lumki hozirgi kunda kichik yoshdagi bolalar va maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida, ma‘nan kamol topishida, kalejaki buyuk jamiyatda o‘z o‘rnini egallashida ham o‘z hissiyotlarni bayon eta olishida ham nutqning ahamiyati juda katta. Bilamizki bolani har tomonlama yetuk rivojlangan qilib tarbiyalashimiz uning insoniyligini ham ko‘rsatadi. Bilimli, qobilyatli va madaniyatni saqlovchi qilib, nutqni ravon qilib voyaga yetkazishimiz kelajagimizni yuksaklarga chiqarishiga sabab bo‘lib, tajribalarimiz samaraligini dunyoga ko‘rsatadi. Kichik yoshdagi bolalarni nutqini, fikrlay olish malakasini ko‘rsatish orqali tilni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim – tarbiya muassalariga berishimiz joizdir. Ularning nutqini shakllantirish o‘z qo‘limizda, biz o‘z ustimizda ishlashimiz bir-necha qator ilimlarni o‘zlashtirishimiz orqali bu darajalarga erishamiz va shu asosda ko‘zlagan maqsadimizga yetishimiz mumkin.

RESOURCES:

1. SH.A.SODIQOVA.“MAKTABGACHA PEDAGOGIKA” - “FAN VA TEXNOLOGIYA”. T. 2017-YIL.
2. D.R.BABAYEVA. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). — T.: “Barkamol fayz media”, 2018, — 432 b.



3. Yo‘ldashev J.G., Usmonov S.A.Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008.
4. Y.Normurodova. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodikasi. // Ustozlar uchun jurnali. 44-son 7–to‘plam may 2023.225-sahifa.